QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko‘chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2022 - yil 20 - may 168-4-58-Q/22 Qamashi tuman hokimligi

Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora–tadbirlari to‘g‘risida

2022 yil Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in kelib chiqishining oldini olish tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazilishini oldini olish maqsadida, Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligining 12.04.2022 yildagi 86-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonuni, (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil 5-son, 122-modda) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 22 noyabrdagi “Respublikasi o‘rmonlarni himoya qilish bo‘yicha ayrim meyoriy xujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami, 1999 yil 11-son 68-modda) ga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil, 9-son, 320-modda)ning 6-moddasiga asosan;

QAROR QILAMAN:

1. 2022 yil yoz, kuz mavsumlarida Davlat o‘rmon fondi yerlarida va qo‘shni fermer va shirkat xo‘jaliklari hamda fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan o‘rmonlarda tamaki maxsulotlari chekish, ov qilish hamda gulxan yoqish qatiyan man qilinsin.

2. Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmonchilik bo‘limlarida yong‘inga qarshi kurash tadbirlari 1-ilovaga, favqulotda holatlarda yong‘inni o‘chirish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi (I.Majidov):

a) Chimqo‘rg‘on, Markaziy ko‘chatchilik, Igrisuv-1, Igrisuv-2 o‘rmon bo‘limlari, Terakchilik o‘rmon uchastkasi va Qiziltom o‘rmon bo‘limi o‘rmonchilari hamda “Azlartepa”, “Qoratepa”, “Qarabog‘”, “Quyiyangi”, “Oqguzar”, “Qiziltepa”, “Boburtepa”, “Changak”, “Qizilqishloq”, “Chuqurqishloq”, “O‘rtadara”, “Katta O‘ra” va “Bog‘obod” mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan birgalikda yong‘in xavfini oldini olishning barcha tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha ma’sulligi belgilab qo‘yilsin;

b) Qamashi tuman fovqulodda vaziyatlar bo‘limi (D.Qayumov), tuman tibbiyot birlashmasi (U.Boysunov), “O‘ztelekom AK tuman filiali (A.Berdimurodov), Chimqo‘rg‘on, Markaziy ko‘chatchilik, Igrisuv-1, Igrisuv-2 o‘rmon bo‘limlari, Terakchilik o‘rmon uchastkasi o‘rmonchilari hamda “Azlartepa”, “Qoratepa”, “Qarabog‘”, “Quyiyangi”, “Oqguzar”, “Qiziltepa”, “Boburtepa”, “Changak”, “Qizilqishloq”, “Chuqurqishloq”, “O‘rta dara”, “Katta O‘ra”, “Bog‘obod” mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan birgalikda:

Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in sodir bo‘lganda tezda kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun yetarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskuna va oziq-ovqatlar bilan ta’minlash hamda tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘risin;

o‘rmon xo‘jaligi yer fondiga yaqin aholiga Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda “O‘rmon to‘g‘risida”gi va “Muxofaza etiladigan tabiiy xudular to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonunlarini buzgan shaxsga nisbatan tegishli xujjatlarni rasmiylashtirib tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilishni munosabati bilan Qamashi tumani hokimining 2021 yil 7-iyundagi 310-4-58-Q/21-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7.Ushbu qaror ijrosini nazorot qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Haydarov zimmasiga yukansin.

8.Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **B.Tog‘ayev**

Qamashi tuman hokimining
2022 yil 20 maydagi
168-4-58-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmonchilik bo‘limlarida yong‘inga qarshi kurash tadbirlari

1.O‘rmonlarda va o‘rmon bilan qoplangan Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsan javobgarlikni his etish, yong‘in bo‘lish ehtimoli kuchli davrda belgilangan yong‘in xavfsizligi tadbirlari va ishlarini bajarish, Davlat o‘rmon fondi yerlari hududlarida chiqqan yong‘inni tezkorlik bilan o‘chirish va bu to‘g‘risida tegishli tashkilotlarga zudlik bilan xabar qilish.

Tashkil qilish va nazorat olib borish – Bosh o‘rmonbegi, o‘rmonni saqlash va muhofaza qilish muhandisi, Bosh hisobchi

Bajaradi: Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmon inspektori, o‘rmon muxandisi, o‘rmon kadastri muxandisi, o‘rmon bo‘lim boshliqlari, o‘rmon ustalari, o‘rmonchilar va ishchi xodimlar

Muddati: Yong‘in xavfi davri mavsum davomida

2.O‘t-o‘lan bilan qoplangan yerlarda, qamishzorlar, o‘rmonzorlar yaqinida shamolli ob-havo gulxan yoqishni ta’qiqlash, yonib turgan narsalarni tashlash uchun maxsus joylarni tashkil qilish, har bir o‘rmon sarhadlari aylanmalarida kamida 200 (ikki yuz) letir miqdorida yelim idishlarida suv zaxiralarini tashkil qilish va maxsus uralarda saqlanishini ta’minlash, suv havzalari mavjud hududlarda ularni tozalash kengaytirish, doimiy suv saqlanishi uchun zarur choralarini ko‘rib borish.

Tashkil qilish va nazorat olib borish- Bosh o‘rmonbegi, o‘rmonni saqlash va muhofaza qilish muhandisi, Bosh hisobchi

Bajaradi: Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmon inspektori, o‘rmon muxandisi, o‘rmon kadastri muxandisi, o‘rmon bo‘lim boshliqlari, o‘rmon ustalari, o‘rmonchilar va ishchi xodimlar

Muddati: Yong‘in xavfi davri mavsum davomida

3. Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmon fondi hududlarida yong‘in chiqqan holatda mahalla fuqarolari yig‘inlari raxbarlari bilan hamkorlikda yong‘in chiqqan joyda ko‘ngilli yong‘in o‘chirish bo‘linmalarini belgilangan yong‘in o‘chirish ishchi kuchlarini o‘z vaqtida yetkazish. Texnika va yong‘inga qarshi transport bilan ta’minlanishini to‘g‘ri va aniq tashkil qilish.

Tashkil qilish va nazorat olib borish-Bosh o‘rmonbegi, o‘rmonni saqlash va muhofaza qilish muhandisi, Bosh hisobchi

Bajaradi: Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmon inspektori, o‘rmon muxandisi, o‘rmon kadastri muxandisi, o‘rmon bo‘lim boshliqlari, o‘rmon ustalari, o‘rmonchilar va ishchi xodimlar

Muddati: Yong‘in xavfi davri mavsum davomida

4.Chorva mollari boqiladigan, ov qilinadigan, beda o‘riladigan o‘rmonlarda, bolalar oromgoxlarida. Dam olish zonalarida va geologik qidiruv va qo‘riqxona

hududidagi ekspeditsiyalarda komplektlangan yong‘in o‘chirish qurollarini bo‘lishini nazorat qilish, Davlat o‘rmon fondi yerlariga yaqin yerlarda va unga olib boruvchi yo‘llar yoqasiga olovdan ehtiyotlik bilan foydalanishga chaqiruvchi yong‘in chiqish xavfidan ogoxlantiruvchi belgilarni qo‘yish. Vaqtincha foydalanuvchilar bilan yong‘in xavfsizligi yuzasidan tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borish.

Tashkil qilish va nazorat olib borish-Bosh o‘rmonbegi, o‘rmonni saqlash va muhofaza qilish muhandisi, Bosh hisobchi

Bajaradi: Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmon inspektori, o‘rmon muxandisi, o‘rmon kadastri muxandisi, o‘rmon bo‘lim boshliqlari, o‘rmon ustalari, o‘rmonchilar va ishchi xodimlar

Muddati: Yong‘in xavfi davri mavsum davomida

5. Ommoviy axborot vositalaridan keng foydalanilgan holda Davlat o‘rmon qo‘riqchilariga shahar va qishloq aholisi o‘rtasida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish mavzularida targ‘ibot ishlarini olib borish.

Tashkil qilish va nazorat olib borish-Bosh o‘rmonbegi, o‘rmonni saqlash va muhofaza qilish muhandisi, Bosh hisobchi

Bajaradi: Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmon inspektori, o‘rmon muxandisi, o‘rmon kadastri muxandisi, o‘rmon bo‘lim boshliqlari, o‘rmon ustalari, o‘rmonchilar va ishchi xodimlar

Muddati: Yong‘in xavfi davri mavsum davomida

6. Davlat o‘rmon fondi yerlarida ish olib boruvchi yoki o‘rmonlarda ba’zi obyektlarga ega bo‘lgan hamda o‘rmon fondi yerlarini ma’lum muddatga ijaraga olgan xo‘jaliklar, tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari va aholining mavsumga tayyorgarliklarini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni birgalikda hal etish hamda qat’iy choralar ko‘rish.

Tashkil qilish va nazorat olib borish-Bosh o‘rmonbegi, o‘rmonni saqlash va muhofaza qilish muhandisi, Bosh hisobchi

Bajaradi: Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmon inspektori, o‘rmon muxandisi, o‘rmon kadastri muxandisi, o‘rmon bo‘lim boshliqlari, o‘rmon ustalari, o‘rmonchilar va ishchi xodimlar

Muddati: Yong‘in xavfi davri mavsum davomida

7.Yong‘in xavfsizligi qodalarini buzuvchilarni tezkorlik bilan aniqlash, ularni ustidan zudlik bilan tegishli xujjatlarni tuzib, keltirilgan zararni undirib olish choralarini ko‘rish, yong‘inga qarshi kurash maqsadida tezkorlik bilan harakat qiluvchi gurux tuzish uni harakat yo‘nalishini belgilash va shu mavzuda semenar tashkil qilish.

Tashkil qilish va nazorat olib borish-Bosh o‘rmonbegi, o‘rmonni saqlash va muhofaza qilish muhandisi, Bosh hisobchi

Bajaradi: Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmon inspektori, o‘rmon muxandisi, o‘rmon kadastri muxandisi, o‘rmon bo‘lim boshliqlari, o‘rmon ustalari, o‘rmonchilar va ishchi xodimlar

Muddati: Yong‘in xavfi davri mavsum davomida

Qamashi tuman hokimining
2022 yil 20 maydagi
168-4-58-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Favqulotda holatlarda yong‘inni o‘chirish rejasi

t/r	Joylashadigan aholi		Yong‘inga qarshi o‘chirish asboblari			O‘rmon bo‘limining nomi	Texnikalar soni	Shundan suv tashish mashinasi	Kerakli narsalarni yuboradigan joy
	Jami	Shundan yong‘in o‘chirishga qatnashadi	Bolta	Arra	Belkurak				
1	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	295	150	95	35	110	Jonbo‘zsoy uchastkasi	8	2	Fuqarolar yig‘ini
2	240	170	80	50	140	Chimqo‘rg‘on	9	3	Fuqarolar yig‘ini
3	340	200	95	35	130	Chimqo‘rg‘on	5	1	Fuqarolar yig‘ini
4	400	250	90	60	145	Chimqo‘rg‘on	6	2	Fuqarolar yig‘ini
5	208	150	80	30	150	Chimqo‘rg‘on	4	2	Fuqarolar yig‘ini
6	200	100	45	20	120	Chimqo‘rg‘on	7	1	Fuqarolar yig‘ini
7	400	180	65	45	150	Markaz	8	3	Fuqarolar yig‘ini
8	270	170	90	62	125	Terakchilik uchastkasi	9	2	Fuqarolar yig‘ini
9	270	180	65	10	140	Igrisuv-1	5	1	Fuqarolar yig‘ini
10	250	160	70	15	200	Igrisuv-1	2	2	Fuqarolar yig‘ini
11	170	130	60	20	130	Igrisuv-1		1	Fuqarolar yig‘ini
12	180	150	65	25	170	Igrisuv-1	8	3	Fuqarolar yig‘ini
13	110	90	55	35	90	Igrisuv-1	4	1	Fuqarolar yig‘ini
14	170	130	140	45	130	Igrisuv-1	9	1	Fuqarolar yig‘ini
15	180	120	150	20	150	Igrisuv-2	6	2	Fuqarolar yig‘ini
16	185	155	145	35	145	Igrisuv-2	7	3	Fuqarolar yig‘ini